



## **BOLALAR ORASIDA BOSHQARILADIGAN INFEKSIYALARGA QARSHI EMLASHNING AHAMIYATI**

***M.A. Mannapova, E.A. Shamansurova***

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti. Toshkent, O'zbekiston*

### **DOLZARBLIGI**

O'zbekistonda aholini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash dasturi sog'liqni saqlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Yuqumli kasalliklarning oldini olish davlat sog'liqni saqlash siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir. Emlash aholining epidemiologik farovonligini ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri ekanligi isbotlandi. Ularning ahamiyati haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida" (1996), "Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to'g'risida"gi (2015) qonun hujjatlarining tegishli moddalarida belgilangan.

### **TADQIQOTNING MAQSADI**

Bolalar orasida yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha vaksinaprofilaktika chora-tadbirlari, shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni o'rganish.

### **TADQIQOT USULLARI**

Tadqiqotda retrospektiv, statistik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

O'zbekiston Respublikasida SSV tomonidan milliy emlash taqvimini muntazam takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2001-yildan beri respublika hududida yangi tug'ilgan chaqaloqlarni gepatit B ga qarshi emlash amalga oshiriladi. 2009-yil mart oyidan beri Hib infeksiyasiga qarshi yangi vaksina bilan uch marta emlash joriy etildi. Kombinatsiyalangan besh valentli (AKDS+VGV+XIB) 2-4 oylik bolalarga, 2014-yil 16-iyundan boshlab 2 va 3 oyli bolalarda rotavirus infeksiyasiga qarshi emlash, 2015-yil noyabr oyidan boshlab 2, 3 va 12 oylik bolalarda pnevmokok infeksiyasiga qarshi emlash joriy qilindi. Vaksinalarning yetarli darajada ta'minlanishi tufayli oxirgi 10 yillikda immunizatsiya qamrovi aholi orasida 97-99% ga yetadi. Rossiyada qizamiq bilan kasallanish bo'yicha epidemiologik vaziyatning murakkablashishi munosabati bilan, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, 2003-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida qizamiq bilan kasallanishning ko'payishi qayd etildi. Shunday qilib, 2003-yilda 85 ta, 2004-yilda 75 ta, 2005-yilda esa 737 ta, 2006-yilda – 823, 2007-yilda – 863, 2008-yilda – 2 ta qizamiq bilan kasallanish holati qayd etilgan. 2005-2007-yillar mobaynida 2 bosqichda milliy emlash jarayoni amalga oshirilgan va Respublika bo'ylab 8 million kishi qamrab olingan. Shunday qilib,

bir necha yillar davomida profilaktik emlashlar bilan qamrov 97-99% ni tashkil qiladi. Natijada 2012-2013-yillarda O'zbekiston Respublikasida qizamiq bilan yangi kasallanish holatlari ro'yxatdan o'tmagan.

### **XULOSA**

Vaksinoprofilaktika millat salomatligini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emlash natijasida bolalardagi infeksiyalari deyarli yo'q qilindi. Vaksina bilan boshqariladigan infeksiyalar toifasiga gemofil, pnevmokokk, pnevmoniya, virusli gepatit, virusli diareya va boshqa ko'plab infeksiyalar kiradi. Emlash aholining epidemiologik farovonligini ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri ekanligini isbotladi. XX asrda umr ko'rish davomiyligi 25 yilga, emlash tufayli esa 20 yilga oshdi. Zamonaviy xavfsiz va immunogen vaksinalarning mavjudligi, emlashni tashkil etish bo'yicha yarim asrdan ortiq tajriba "nazorat qilinadigan" infeksiyalarni sporadik darajada bartaraf etish yoki barqarorlashtirish bo'yicha sog'liqni saqlash maqsadlarini belgilashga imkon beradi.